XALQ DEPUTATLARI DEHQONOBOD TUMAN KENGASHI
Q A R O R I

2023 - yil 6 - fevral VI-47-4-4-57-K/23 Dehqonobod tuman hokimligi

Xalq deputatlari Dehqonobod tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF–6075-son “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6 va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni bilan 2021-yil 1-iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Xalq deputatlari Dehqonobod tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qaror qabul qilinishi munosabati bilan Xalq deputatlari Dehqonobod tuman Kengashining 2023-yil 18-yanvardagi “Xalq deputatlari Dehqonobod tuman Kengashining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan qarorlarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi VI-49-3-4-57-K/23-son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Tuman hokimligi Matbuot xizmati mazkur qarorni rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kiradi.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Dehqonobod tuman Kengashining Qonuniylikni ta’minlash va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi U.Xayitov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Yuldashovich A. M.**

Xalq deputatlari Dehqonobod
tuman Kengashining
2023 yil 6 fevraldagi
VI-47-4-4-57-K/23-son qaroriga
1-ilova

Xalq deputatlari Dehqonobod tuman Kengashining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari
RO‘YXATI

1. Xalq deputatlari Dehqonobod tuman Kengashining 2022-yil 5-iyuldagi VI-41-73-4-57-K/22-sonli “Dehqonobod tuman mahalliy budjetining 2022-yil uchun tasdiqlangan parametriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarori.